O‘razmetova.F.A.
Farg‘ona Davlat Universiteti 3-kurs talabasi

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kitob haqida, kitobxonlik madaniyati, kitob o‘qishning foydalari, ajdodlarimiz qanday kitoblar o‘qigani, oilada kitob mutolaasi madaniyati, oilada bolalarni bolalikdan kitob o‘qishga odatlantirish, maktab o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, bu boradagi ayrim muammolar va ularni oldini olishga qaratilgan fikrlar, maktab o‘quvchilarini kitob o‘qishga qiziqtirishda maktab kutubxonachisining roli, farzandlarga shaxsiy kutubxonaga ega bo‘lishiga imkon yaratish kabi masalalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

Аннотация. В настоящей статье рассматривается роль книги и культуры чтения, подчеркиваются преимущества чтения, виды литературы, которые читали наши предки, а также значение формирования культуры семейного чтения. Особое внимание уделяется приучению детей к чтению с раннего возраста, развитию культуры чтения у школьников, а также существующим проблемам и возможным мерам их профилактики. В статье также акцентируется роль школьного библиотекаря в мотивации учащихся к чтению и подчеркивается важность создания условий для формирования у детей личной библиотеки.

Absract. The present article examines the role of books and the culture of reading, highlighting the benefits of reading, the types of literature read by our ancestors, and the significance of fostering a culture of family reading. Particular attention is given to the importance of cultivating the habit of reading in children from an early age, the development of reading culture among school students, as well as existing challenges and possible preventive measures. The article also emphasizes the role of school librarians in motivating students to read and discusses the importance of creating opportunities for children to establish their own personal libraries.

Kalit so‘zlar. Kitob, kitob o‘qish madaniyati, bolalik, so‘rovnoma, maktab kutubxonasi, odatlantirish, fikrlash, shaxsiy kutubxona.

Ключевые слова. Книга; культура чтения; детство; анкетирование; школьная библиотека; формирование привычки; критическое мышление; личная библиотека.

Keywords. Book; reading culture; childhood; survey; school library; habit formation; critical thinking; personal library.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mutolaa haqida fikr bildirib, jumladan shunday degandi: "…. hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini

yana - da oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turubdi".[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida"gi [2] farmoyishi, 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora - tadbirlar dasturi to‘g‘risida"gi [3] qarorlari, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi [4] ettita ustuvor yo‘nalishlardan biri ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishni ko‘zda tutadi. Taraqqiyotning 72 - maqsadida:

- birinchidan: aholiga axborot - kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada rivojlantirish;
- ikkinchidan: kitobxonlikni keng ommalashtirish;
- uchunchidan: "Kitobsevar millat" - umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish vazifalari belgilab berilgan;

Ma’lumki, yoshlarimiz qadimgi ajdodlarimiz haqidagi ma’lumotlarni, ularning hayot tarzini kitob o‘qish orqali bilib oladilar.

Mazkur yo‘nalishda tashkiliy amaliy ishlarni olib borish va ularni zamon talablariga mos tarzda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tegishli huquqiy - me’yoriy hujjatlar bazasi yaratilgan.

"Kitob" so‘zi arabcha bo‘lib, lug‘atda "o‘z ichiga jamlamoq", "to‘plamoq" kabi ma’nolarni anglatadi. Kitob - axborotlarni, g‘oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy - siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ‘iboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot.

Kitobxonlik madaniyati - bu kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish, kitob tanlash, o‘qigan asarlarini tahlil qilish va undan hayotda foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan ma’naviy tarbiya jarayonidir. Kitobxonlik madaniyati haqida so‘z borar ekan, avvalo yoshlarga kitob o‘qishning foydalari haqida ma’lumot berish zarur bo‘ladi:

- mutolaa xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi;
- mutolaa insonni go‘zallashtiradi;
- mutolaa so‘z boyligini oshiradi;
- mutolaa miya faoliyatini yaxshilaydi;
- kitob o‘qiydigan bolalar darslarni yaxshi o‘zlashtiradi va hakozo.

Buyuk allomamiz, ma’rifatparvar pedagog Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" [5, 5] asarida "Fikr tarbiyasi" bobida "....fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladir" degan fikrlar yozilgan.

Insonlarda Fikr tarbiyasini kitob o‘qish orqali shakllantirish mumkin. Inson kim bo‘lishidan qat’i nazar, o‘qituvchimi, tadbirkormi, dehqonmi, quruvchimi o‘z fikriga ega bo‘lishi kerak, o‘z fikriga ega odamgina boshqalar oldida qo‘rqmay gapira oladi, yot g‘oyalardan o‘zini himoya qila oladi.

TAHLILLAR VA MUHOKAMA. Kitob haqida so‘z borar ekan, hozirgi kunda yoshlarning kitob o‘qish borasidagi faoliyatlarida ozgina sustlik kuzatiladi. Kitob o‘qiydigan bolalar ham bor. Ammo, bir sinfda 4 ta yoki 5 ta o‘quvchini tashkil qilishi mumkin. Yoshlarning kitobga qiziqishini o‘rganish maqsadida oddiy amaliyotchi talaba sifatida o‘zim amaliyot o‘tash jarayonimda Farg‘ona ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internatidagi 9-sinf o‘quvchilarida quyidagi so‘rovnomani o‘tkazdim(1-jadval):

№	Savollar	Raqamlarda		Foizda (%)	
1	Badiiy adabiyotlar o‘qishga ıasizmi?	“Ha”	“Yo‘q”	“Ha”	“Yo‘q”
		9	9	50	50
2	Siz bir kunda necha soat ingizni kitob o‘qishga sarflaysiz?	1 soat	30 min	1 soat	30 min
		5	13	27,8	72,2
3	Ota-onangizdan kitob sotib ıga pul so‘raysizmi?	“Ha”	“Yo‘q”	“Ha”	“Yo‘q”
		8	10	44,44	55,56
Jami 18 ta o‘quvchi					

1-jadval

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 1 savoldagi 50 % ko‘rsatgich hozirgi axborotlashgan jamiyatda nisbatan yaxshi natijani ko‘rsatadi. 2-savolga kelsak, atigi 5 ta o‘quvchi 1 soat kitob o‘qishi ma’lum bo‘ldi. Qolgan 13 o‘quvchi yarim soatgina kitob o‘qishi ma’lum bo‘ldi, bu bir kunga, ya’ni 24 soatga nisbatan juda o‘z vaqt. Mashxur alloma Kavkovus o‘zining "Qobusnoma" [6, 106] asaridagi "Farzand parvarish qilmoq zikrida" deb nomlangan 27 bobida ".....nedinkim, yosh o‘g‘lon ilm va adabni tayoq bila o‘rganur va o‘z ixtiyori bila o‘rganmas" deb yozib qoldirgan. Shundan kelib chiqib, ota-onalarga mening oddiy talaba sifatida maslahatim, farzandlarini har kuni 1 soat kitob o‘qishga majburlab, odatlantirish kerak. Shunaqa qilib oz-ozdan vaqtini ko‘paytirish kerak. Iloji bo‘lsa bolalarni oilaviy kitob o‘qishga o‘rgatish kerak. Oilada bir kishi kitob o‘qishi va boshqalar tinglashi mumkin. Shunday usullar bilan bolada kitob mutolaasiga ko‘nikma hosil qilsa bo‘ladi. 3-savolga kelsak, 1-savoldagi 50 % badiiy adabiyot o‘qishga qiziqmaydigan o‘quvchilar ota-onasidan kitob uchun pul so‘ramasligi o‘rganishlarda ma’lum bo‘ldi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Taniqli yozuvchi Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" [7, 4] asarining "Yoshlik ayyomining ilk bahori" deb nomlangan bobida "G‘iyosiddin devonxonadan kelib, dam olgandan so‘ng ba’zan qo‘liga kitob olib mutolaa qilar, shunday kezlar Alisher yoniga kelib o‘tirib olar va ovoz chiqarib o‘qishini so‘rar edi. Otasi esa: "Yaxshisi hikoya qilib beray", - deb kitobni yig‘ishtirib qo‘yar va qiziq bir ertakni aytib berardi".

Qissadan ma’lum bo‘ladiki, oilalarda bolalarni bolalikdan kitob o‘qishga qiziqtirish kerak. Kitob o‘qishga qiziqtirishda ota - onalarning roli juda muhim. Buning uchun ularning o‘zlari kitobxon bo‘lishi kerak.

Maktabda o‘quvchilarning kitobxonlik savodini oshirishga maktab va kutubxona hamkorligi yaxshi natija beradi. Buning uchun maktab kutubxonachisi o‘zi malakali kadr bo‘lishi, maktab o‘quvchilarning yoshiga mos keladigan kitoblarni tanlab, ularga maslahatlar berishi kerak. Kutubxonada 2 oyda bir o‘qigan badiiy adabiyotlari soniga qarab "Eng yaxshi kitobxon o‘quvchi" tanlovlari, o‘qigan asarlari yuzasidan "Sizda yaxshi taaassurot qoldirgan qahramon" nomli insholar tanlovlari, o‘qigan asarlari bo‘yicha test shaklida tezkor musobaqalar tashkil qilinsa, yuqoridagi tahlillar natijalari samarali bo‘lardi. G‘olib bo‘lgan o‘quvchilarga maktab fondi jamg‘armasidan kitoblar sovg‘a qilinsa yaxshi natijalar kutiladi.

Mashhur alloma Yusuf Xos Xojibning "Qutadg‘u - bilig" [8, 121] asarida "Kishi o‘rganishdan dono bo‘ladi" - deb yozilgan. Kitob o‘qish san’ati ham o‘rganishning bir ko‘rinishi aslida.

Qadim zamonlarga nazar solsak, chiroq paydo bo‘lgan XIX asrga qadar ajdodlarimiz sham yorug‘ida kitob o‘qib, dunyoni lol qoldirgan asarlar yozganlari tariximizdan ma’lum. Ajdodlarimiz o‘qigan kitoblari turli xil bo‘lib, ularning o‘qiyotgan kitoblarining turini davr va ta’sir etuvchi omillarga qarab ajratib olish mumkin. Ularning o‘qigan kitoblari orasida diniy, adabiy, tarixiy va ilm - fan kitoblari mavjud edi. Bundan tashqari, ajdodlarimiz ertaklar, poemalar, hikoyalar kabi adabiy asarlarni ham o‘qishgan. Ularning o‘qiyotgan kitoblari ularning ta’limoti, ijtimoiy qatlamlari va qiziqishlariga qarab farqlangan.

Kitobi o‘qimaydigan oilada ham yaxshi kitob o‘qiydigan kitobxon farzandlar uchraydi.

Tug‘ilgan kunlarida, bayramlarda farzandlariga kitob sovg‘a qilishlarini aziz ota - onalarga oddiy talaba sifatida tavsiya qilaman. Ularga kitob sovg‘a qilib, yoshligidan o‘zlari uchun shaxsiy kutubxona yaratish imkonini berish kerak.

Mutolaa bolalar uchun sehrli jarayonga aylanishi, yoshligidan sevib o‘qigan asarini oradan necha yil o‘tgandan keyin ham shirin xotira sifatida eslab yurishi kerak. Shundagina biz yuqoridagi ishlarimizning natijasini ko‘ramiz, ozgina bo‘lsa ham bolalarni kitob o‘qishga qiziqtirsak vaqtimizni foydali Ishga sarflagan bo‘lamiz.

"Agar nodir fikrli insonga duch kelsak, undan qanday kitoblarni o‘qishini so‘rashimiz kerak" (R.V.Emerson, shoir, essenafis). Bu fikrdan shunday xulosaga keldimki, kitob o‘qigan inson o‘z fikriga ega bo‘ladi, nafaqat o‘z fikriga, balki yuksak aql - idrokka ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATIL

1. 2017-yil 14-yanvardagi "Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasing kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza".
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g'risida"gi farmoyishi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ - 3271 sonli "Kitob

mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo‘yicha kompleks chora - tadbirlar dasturi to‘g'risida"gi Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 - yildagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g'risida"gi Farmoni.

5. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent-2028.

6. Kaykovus."Qobusnoma".”O‘qituvchi” nashryoti, Toshkent-2019.

7. Mirkarim Osim. "Zulmat ichra nur" (tarixiy qissasi). “Ilm-ziyo-zakovat” nashriyoti, Toshkent-2021.

8. Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig"(“Soadatga eltuvchi bilim”). Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2007.